



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI METODIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Mo‘minova Adiba Odiljon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat
Pedagogika Universiteti Pedagogika
fakulteti 1-kurs magistranti
Tel: +9989461185333

e-mail: adibaxonmuminova1112@gmail.com

Annotatsiya: Maqola bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik savodxonligini rivojlantirishning ahamiyatini yoritadi. Zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi samarali ta‘lim berish va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot nazariy va amaliy asosda tayyorlangan bo‘lib, pedagogikaning asosiy tamoyillari, mashhur sharq va g‘arb mutafakkirlarining ta‘lim-tarbiya haqidagi qarashlari hamda zamonaviy metodik yondashuvlar tahlil qilingan. Natijalar metodik kompetensiyani shakllantirishda innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Xulosa sifatida, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik savodxonligini rivojlantirish ularning kasbiy mahoratini oshirishga, ta‘lim sifatini yaxshilashga va innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: metodik savodxonlikni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchining individual xususiyatlari, axborot-kommunikatsiya vositalari, metodik savodxonlikka tayyorlash vositalari, pedagogik metodlar, online ta‘lim platformalari, o‘quv-uslubiy vositalar, intrfaol metodlar.



Abstract: The article highlights the importance of developing methodical literacy of future teachers. In the modern educational process, the methodical training of teachers plays an important role in effective teaching and optimizing the learning process of students. The research was prepared on a theoretical and practical basis, the main principles of pedagogy, views of famous Eastern and Western thinkers on education and modern methodological approaches were analyzed. The results show the effectiveness of innovative technologies and interactive methods in the formation of methodical competence. In conclusion, the development of methodical literacy of future teachers serves to improve their professional skills, improve the quality of education, and introduce innovative pedagogical approaches.

Key word: development of methodical literacy, application of innovative technologies, individual characteristics of the student, information and communication tools, means of preparation for methodical literacy, pedagogical methods, online educational platforms, teaching-methodical tools.

Аннотация: В статье подчеркивается важность формирования методической грамотности будущих учителей. В современном образовательном процессе методическая подготовка учителей играет важную роль в эффективном обучении и оптимизации процесса обучения студентов. Исследование подготовлено на теоретической и практической основе, проанализированы основные принципы педагогики, взгляды известных мыслителей Востока и Запада на образование и современные методические подходы. Результаты показывают эффективность инновационных технологий и интерактивных методов в формировании методической компетентности. В заключение следует отметить, что формирование методической грамотности будущих учителей служит повышению их профессионального



мастерства, улучшению качества образования, внедрению инновационных педагогических подходов.

Ключевые слова: формирование методической грамотности, применение инновационных технологий, индивидуальные особенности студента, информационно-коммуникационные средства, средства подготовки к методической грамотности, педагогические методы, онлайн-образовательные платформы, учебно-методические средства

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish va ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'qituvchilarning metodik savodxonligi nafaqat o'quvchilarga samarali ta'lim berish, balki ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llay olish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi va zamonaviy ta'lim talablari bilan bog'liqdir. Ushbu maqola metodik savodxonlik tushunchasi, uni rivojlantirish usullari va zamonaviy ta'lim sharoitida qo'llanilishi tahlili qilinadi. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonligini rivojlantirishning ahamiyati Metodik savodxonlik o'qituvchilarning darsni samarali tashkil etishi, didaktik materiallarni to'g'ri tanlashi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilishi va baholashi hamda innovatsion yondashuvlardan foydalanishi uchun zaruriy ko'nikma va malakalardan biridir. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilar uchun metodik tayyorgarlikni rivojlantirish quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Pedagogik metod va uslublarni bilish – zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan xabardor bo'lish va ularni amaliyotda qo'llash;
- Darsni rejalashtirish va tashkil etish – dars mazmunini tizimli va samarali tarzda yetkazish ko'nikmalarini rivojlantirish;



- Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish – raqamli texnologiyalar, interfaol o'qitish metodlari va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash;
- Reflektiv o'qitish amaliyoti – o'z faoliyatini tahlil qilish, dars sifatini oshirish va metodik kamchiliklarni aniqlash;
- Baholash va monitoring jarayonini olib borish – o'quvchilarning bilimini aniqlash va rivojlantirishga yo'naltirilgan baholash tizimlarini ishlab chiqish va qo'llash.

Metodik savodxonlikni rivojlantirishning innovatsion usullari

1. Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish. Axborot texnologiyalaridan foydalanish metodik savodxonlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Elektron ta'lim platformalari, onlayn ta'lim resurslari va masofaviy ta'lim vositalaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetensiyalarini shakllantiradi.

2. Interfaol va reflektiv ta'lim metodlari. O'qitish jarayonida interfaol yondashuvlar va reflektiv o'qitish usullaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik jarayonni chuqur anglash va doimiy ravishda o'z faoliyatini tahlil qilishga o'rgatadi.

3. Kasbiy metodik tayyorgarlik amaliyotlari. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda amaliyot va tajribaviy o'qitish modellari muhim ahamiyatga ega. Haqiqiy dars jarayonlarida ishtirok etish, dars kuzatuvlari va stajirovkalar orqali metodik savodxonlikni oshirish mumkin.

4. Hamkorlikda o'qitish va mentorlik. Tajribali o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlash, seminar va treninglarda ishtirok etish orqali bo'lajak o'qituvchilar zamonaviy metodik yondashuvlar bo'yicha bilimlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

5. Kasbiy rivojlanish va uzluksiz ta'lim. O'qituvchilarning metodik savodxonligini doimiy oshirish uchun malaka oshirish kurslari, onlayn vebinarlar, xalqaro tajribalarni o'rganish va ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etish muhimdir. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonligini rivojlantirishning mohiyati, uning ahamiyati hamda samarali usullarini tahlili qiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonligini rivojlantirish bo'yicha sharq va g'arb mutafakkirlarining asarlari hamda zamonaviy pedagogik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada qadimgi mutafakkirlarning pedagogik qarashlari, zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari hamda ilg'or metodik yondashuvlar o'qituvchilik kasbining rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlaridan biri Alisher Navoiy ta'lim va tarbiya haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Uning "*Mahbub ul-qulub*"¹ asarida ilmning jamiyat hayotidagi o'rni va ustoz-shogird munosabatlarining muhimligi ta'kidlangan. Navoiyga ko'ra, bilim olish jarayonida metodik yondashuvlar muhim bo'lib, yaxshi ta'lim olgan shaxs jamiyatning ilg'or qatlamiga aylanishi mumkin. G'arb mutafakkirlaridan Yohann Genrix Pestalossi "*Tabiatga mos ta'lim*"² asarida o'qituvchi metodik jihatdan savodli bo'lishi uchun amaliy va nazariy bilimlarni uyg'unlashtirishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim metodikasida o'qituvchilarni faollikka undovchi usullar ustuvor bo'lishi lozim. Jon Dyui esa "*Tajribaviy ta'lim*"³ asarida ta'lim jarayonini faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklamasdan, uni hayotiy tajribalar bilan boyitish zarurligini ta'kidlaydi. Dyui ta'lim jarayonida interfaol metodlarning qo'llanishini qo'llab-quvvatlab, o'qituvchilarni metodik jihatdan rivojlantirishni asosiy vazifalardan biri deb hisoblagan. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar ham metodik savodxonlikni rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratadi. V.V.Guzeev va S.E.Shishovlarning⁴ ilmiy ishlari ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashning samaradorligi haqida ma'lumot beradi. Ushbu tadqiqotlarda pedagogik jarayonda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlarni

¹ Navoiy A. *Mahbub ul-qulub* – 1500 yil

² Genrix Y.P. *Tabiatga mos ta'lim*. – Shveysariya 1801

³ Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2019). Cooperative Learning: Theory and Practice. *Educational Psychology Review*, 31(2), 249-269

⁴ Селевко Г.К. *Современные образовательные технологии: Учебное пособие*. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.



joriy etish muhimligi ta'kidlanadi. O'zbek olimlaridan Abdullayeva xalq pedagogikas⁵ asosida innovatsion metodlarni ishlab chiqish va ularni milliy qadriyatlarga moslashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning tadqiqotlari metodik savodxonlikni rivojlantirishda xalq an'analari va zamonaviy ta'lim texnologiyalarining uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonligini rivojlantirish uchun qadimgi pedagogik meros, zamonaviy innovatsion yondashuvlar va ilg'or ta'lim metodlaridan foydalanish muhimdir. Shu sababli, yuqorida tilga olingan adabiyotlar metodik savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirishda mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonligini rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va sifatli pedagogik kadrlarni tayyorlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Metodik savodxonlik nafaqat nazariy bilimlarni, balki o'qitish jarayonida amaliy ko'nikmalardan samarali foydalanish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. XX asr pedagogikasi, jumladan, sobiq Sovet pedagogikasi metodikani qat'iy nazariy asoslarga qurish va markazlashgan ta'lim tizimiga moslashtirishga yo'naltirilgan edi. Bu esa o'qituvchilarning ijodiy yondashuvini cheklash bilan birga, ularning metodik mahoratini rivojlantirishga to'liq imkon bermagan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pedagogik tafakkur tubdan o'zgarib, ta'lim sohasida ilg'or xorijiy tajribalar va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga asoslangan yangi yondashuv shakllandi. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonligini oshirishda interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ushbu tadqiqot nazariy tahlil va amaliy tajribalar asosida olib borildi. Tadqiqot davomida metodik savodxonlikni rivojlantirish

⁵ Abdullayeva K. Xalq pedagogikasi "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (SI) 1/2020



bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar o'rganildi, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari tahlil qilindi. Metodik savodxonlikni rivojlantirishga oid tadqiqot metodlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Nazariy tahlil: Metodik savodxonlik bo'yicha ilg'or pedagogik yondashuvlarni o'rganish, milliy va xalqaro tajribalarni solishtirish.
- Eksperimental tadqiqot: Metodik savodxonlikni oshirishga qaratilgan yangi texnologiyalar va interfaol usullarni ta'lim jarayonida sinovdan o'tkazish.
- So'rov va intervyu usullari: Bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonlik darajasini baholash uchun o'qituvchilar va talabalarning fikrlarini o'rganish.

Metodik savodxonlikni rivojlantirish uchun ishlatiladigan ta'lim metodlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Innovatsion texnologiyalar: Elektron darsliklar, onlayn platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari.
- Interfaol metodlar: Klaster, "Aqliy hujum", loyihaviy ta'lim, rolli o'yinlar.
- Refleksiv yondashuv: O'qituvchilarning o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish va metodik xatolarni aniqlash.

Ushbu tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilar uchun metodik savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha samarali yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning metodik savodxonligi doimiy ravishda yangilanib, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan boyitilib borilishi lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Metodik savodxonlik – bu o'qituvchining dars jarayonini samarali tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos yondashuvni qo'llay olish qobiliyatidir. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonligini rivojlantirish ta'lim jarayonining sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish imkonini beradi. Interfaol metodlar,



axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va refleksiv yondashuv asosida metodik kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodik savodxonlikning rivojlanishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish bilan birga, ta'lim sifati va samaradorligini ham yaxshilaydi. Bunda quyidagi jihatlar kuzatiladi:

- O'qituvchilarning dars jarayonini rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha malakasi ortadi;

- O'quvchilarning qiziqish va faolligi oshadi;
- O'qitish metodlarining xilma-xilligi va moslashuvchanligi ta'minlanadi;
- Innovatsion texnologiyalar orqali ta'lim samaradorligi oshadi.

Metodik savodxonlikni oshirishda quyidagi usullar samarali natijalar beradi:

- Interfaol ta'lim metodlari: Klaster, "Aqliy hujum", Venn diagrammalari, rolli o'yinlar va kollaborativ loyihalar orqali bo'lajak o'qituvchilarning darslarni ijodiy tashkil etish qobiliyati rivojlanadi.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: Elektron darsliklar, interaktiv taqdimotlar, onlayn ta'lim platformalari va masofaviy o'qitish texnologiyalari pedagogik jarayonni yanada samarali qiladi.

- Refleksiv tahlil: Dars tahlili, o'z-o'zini baholash va pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish orqali o'qituvchi o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi va ustida ishlaydi.

Metodik savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kuzatuvlar quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

- **Faollikning oshishi:** Interfaol metodlar qo'llanilgan dars mashg'ulotlarida talabalar yanada faol ishtirok etib, muhokamalarda o'z fikrlarini erkin ifoda qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.



- **Tafakkurning kengayishi:** Kollaborativ ta'lim usullari yordamida talabalar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirdi.

- **Pedagogik mahoratning o'sishi:** Turli metodik usullardan foydalangan holda dars tashkil qilish bo'yicha ko'nikmalar shakllandi.

- **Innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarining shakllanishi:** Bo'lajak o'qituvchilar axborot texnologiyalarini dars jarayonida to'g'ri va samarali qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ldi.

Bularning barchasi metodik savodxonlikni rivojlantirishning nafaqat bo'lajak o'qituvchilar uchun, balki ta'lim jarayonining umumiy samaradorligi uchun ham muhimligini ko'rsatadi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash va o'qitish metodikasini doimiy ravishda takomillashtirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonligini rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Metodik savodxonlik – bu nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo'llay olish, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va interfaol metodlarni samarali tatbiq etish qobiliyatidir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarning metodik savodxonligini oshirish uchun:

- Pedagogik tayyorgarlikni kuchaytirish – metodik ta'lim mazmunini takomillashtirish va amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish – zamonaviy elektron resurslardan foydalangan holda dars jarayonini interaktiv tashkil etish;



- Innovatsion yondashuvlarni joriy etish – interfaol va kollaborativ metodlarni pedagogik faoliyatga keng tatbiq etish;

- Refleksiv va tanqidiy fikrlashni shakllantirish – o‘qituvchining o‘z metodik faoliyatini doimiy tahlil qilish va takomillashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim sanaladi.

Metodik savodxonlikni rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarga nafaqat kasbiy kompetensiyalarni egallashga, balki mustaqil, kreativ va zamonaviy pedagog sifatida shakllanishga yordam beradi. Shu bois, ta’lim tizimida o‘qituvchilarning metodik savodxonligini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayeva K. Xalq pedagogikasi "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (SI) 1/2020
2. Genrix Y.P. Tabiatga mos ta’lim. – Shveysariya 1801
3. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2019). Cooperative Learning: Theory and Practice. *Educational Psychology Review*, 31(2), 249-269.
4. Navoiy A. *Mahbub ul-qulub* – 1500 yil
5. Sangirova, M. (2023). Bugungi kun o‘qituvchisiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar. *Экономика и социум*, 12(115).
6. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.